



O'ZBEKISTON MOLIYAVIY INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL TAHLILI

PhD Abdulazizova O'g'iloy Nuriddinxo'jayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi
ORCID: 0000-0003-0105-2614
u.abdulazizova@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning moliyaviy infratuzilmasining asosiy komponentlarining funksional tahlili keltirilgan. Bank sohasida raqobatning cheklanganligi, fond bozorining likvidlik darajasining pastligi, kredit byuolarining yetarlicha qamrab olinmasligi va shaffoflik masalalari bo'yicha mavjud muammolar ko'rib chiqilgan. Moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish va investitsiyalarni jalb qilish uchun tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy infratuzilma, bank tizimi, fond bozori, raqobat.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ УЗБЕКИСТАНА

PhD Абдулазизова Огиллой Нуриддинходжаевна
Научно-исследовательский центр «Научные основы и
Проблемы развития экономики Узбекистана» при
Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В статье представлен функциональный анализ ключевых компонентов финансовой инфраструктуры Узбекистана. Особое внимание уделено оценке текущих достижений и существующих проблем, включая ограниченную конкуренцию в банковском секторе, низкую ликвидность фондового рынка, недостаточный охват кредитных бюро и вопросы прозрачности. В работе предложены рекомендации по совершенствованию финансовой инфраструктуры для устойчивого экономического роста и привлечения инвестиций.

Ключевые слова: финансовая инфраструктура, банковская система, фондовый рынок, конкуренция.

FUNCTIONAL ANALYSIS OF FINANCIAL INFRASTRUCTURE OF UZBEKISTAN

PhD Abdulazizova Ogiloy Nuriddinxo'jayevna
Scientific research center "Scientific foundations and problems
of the development of the economy of Uzbekistan" under the
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article presents a functional analysis of the key components of Uzbekistan's financial infrastructure. Particular attention is given to assessing current achievements and existing challenges, including limited competition in the banking sector, low liquidity of the stock market, insufficient coverage by credit bureaus, and transparency issues. Recommendations are proposed for improving financial infrastructure to ensure sustainable economic growth and attract investments.

Keywords: financial infrastructure, banking system, stock market, competition.

Kirish.

Funksional tahlil moliyaviy infratuzilmaning asosiy elementlari o'z vazifalarini qanchalik samarali bajarishini va ular iqtisodiy o'sishga qanday hissa qo'shishini baholashga imkon beradi. O'zbekiston uchun, iqtisodiy tizimning barcha bo'g'inlarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirayotgan sharoitda, bunday tahlil takomillashtirish uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga yordam berishi mumkin.

"O'zbekiston – 2030" Strategiyasida mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yana-da oshirish, qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish, shuningdek, bank tizimida islohotlarni jaddallashtirish, bank xizmatlari bozorini hajmini oshirish va ushbu sohada raqobatni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Jumladan, "Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish", "Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish" kabi tadbirlar rejalashtirilgan. Bu esa tadqiq qilinayotgan mavzuning dolzarbligini aniq ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Sulaymonovning (2024) monografiyasida bank va iqtisodiyotning real sektorini integratsiyalashuvi jarayonlarini kuchaytirishning muhim jihatlari va istiqbollari, integratsiya mohiyati va turlari, shuningdek, zamonaviy moliyaviy instrumentlar va iqtisodiyot sektorlarini integratsiyalashuv mexanizmlarining o'rni yoritib berilgan. Integratsiya subyektlarining kapitalini IPO orqali o'zaro oshirish, bank sektorining ustav kapitalini bosqichma-bosqich oshirish orqali likvidlik darajasini ko'tarish va 2025 yilgacha vertikal moliyaviy-sanoat guruhlarini shakllantirish kabi yo'nalishlar keltirilgan.

Sultanov (2023) jahon mamlakatlari moliya bozori infratuzilmalari bo'yicha qiziq fikr keltiradilar "mamlakat qanchalik boy va uning rivojlanish darajasi nechog'li yuqori va o'sish sur'atlari barqaror bo'lsa, unda moliya bozori infratuzilmasining rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlar mavjud" deb.

Alekseevning (2013) fikriga ko'ra "Moliyaviy infratuzilma – bu iqtisodiy subyektlarning moliyaviy resurslarni boshqarish, ularni shakllantirish, tartibga solish va investitsiya qilish, shuningdek, nazorat qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarini vositachilik qiluvchi funksional kichik tizimlar majmuasini o'z ichiga oluvchi kvazibarqaror tizim bo'lib, kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan".

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada quyidagi tadqiqot metodlari qo'llanilgan:

- Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Respublika fond birjasi "Toshkent" hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari o'rganilib, moliyaviy infratuzilmaning holatini miqdoriy baholash uchun ishlatilgan;

- Taqqoslash tahlili. O'zbekistonning moliyaviy infratuzilmasi asosiy ko'rsatkichlari Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslab o'rganilib, kuchli va zaif tomonlar aniqlangan;

- Funksional tahlil metodi. Asosiy moliyaviy infratuzilma komponentlari, asosiy funksiyalarini bajarish samaradorligi baholangan;

- Tizimli yondashuv. Moliyaviy infratuzilmaning komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar va ularning iqtisodiyot rivojiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonning moliyaviy infratuzilmasi to'lov tizimlari, bank va kredit infratuzilmasi, fond bozori, kredit byurolari va tartibga soluvchi tuzilmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu

komponentlar o'zaro bog'liq va mamlakatning moliyaviy tizimi rivojlanishiga ta'sir qiladi, shuningdek, biz ko'rib chiqadigan bir qator funksiyalarni bajaradi.

1-jadval

Moliyaviy infratuzilma komponentlarining asosiy funksiyalari

| Moliyaviy infratuzilma komponenti | Asosiy funksiyalar |
|-----------------------------------|--|
| Bank tizimi | <ul style="list-style-type: none"> - Aholi va biznesga kredit berish - Moliyaviy vositachilik - Aktivlarni saqlash va boshqarish - To'lov va hisob-kitob operatsiyalari - Pul-kredit siyosatini qo'llab-quvvatlash |
| Fond bozori | <ul style="list-style-type: none"> - Kompaniyalar uchun aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish orqali kapital jalb qilish - Investitsiya qilish va risklarni diversifikatsiya qilish - Aktivlarning bozor narxini aniqlash - Aktivlar likvidligini ta'minlash |
| To'lov tizimi | <ul style="list-style-type: none"> - Naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish va qayta ishlash - Tranzaksiyalarning tezligi va qulayligini ta'minlash - Naqd puldan foydalanishni kamaytirish |
| Kredit byurosi | <ul style="list-style-type: none"> - Qarzdorlarning kredit tarixi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va saqlash - Mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash - Banklar va moliyaviy institutlar uchun kredit xavflarini kamaytirish - Kredit bozorida ishonchni oshirish |
| Nazorat organlari | <ul style="list-style-type: none"> - Moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish - Moliyaviy bozorning barqarorligi va shaffofligini ta'minlash - Moliyaviy xizmat iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish - Tizimli xavflarni kamaytirish |

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Bank tizimining kreditlash va moliyaviy vositachilik funksiyasi.

Moliyaviy infratuzilmaning asosiy qismi bank sektoriga to'g'ri keladi. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 32 ta bank faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 84% aktivlar davlat banklarida jamlangan. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, banklar tomonidan berilgan kreditlar 471 trillion so'mni tashkil etib, bu mamlakat YaIMning taxminan 30%iga teng. 2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, kredit mablag'lari hajmi yil sayin oshib bormoqda. Faqatgina 2017–2024-yillar davrida iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar miqdori 9 barobarga yoki 896% ga o'sgan.


2-jadval

O'zbekistonda kreditlashning asosiy ko'rsatkichlari (tegishli yilning 1-yanvar holatiga ko'ra)

| Yillar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|--|------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Kredit mablag'lari, trln. so'm | 52,6 | 110,6 | 167,4 | 211,6 | 276,9 | 326,4 | 390,1 | 471,4 |
| Kredit portfelining YaIMga nisbati, % | 26,4 | 44,4 | 41,1 | 41,5 | 47,7 | 44,2 | 43,9 | - |

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Davlat ulushi bo'lmagan banklar soni davlat ishtirokidagi banklarga nisbatan ikki baravar ko'p bo'lishiga qaramay, aynan davlat banklari mamlakat bank sektorida katta rol o'ynaydi.




1-rasm. Davlat ulushi bo'lgan banklarning asosiy ko'rsatkichlardagi ulushi, %

Shuni ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda kreditlarning 50 foizdan ortig'i to'rtta-beshta yirik davlat banklari tomonidan berilgan (2-rasmga qarang).

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqadigan asosiy muammolar:

1. Yirik davlat banklarida aktivlar jamlanishi tufayli kichik va o'rta biznes uchun kreditga yetarli darajada kirish imkoniyati mavjud emas.

2. Raqobatning cheklanganligi kreditlash va moliyaviy vositachilikning samarali ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.



2-rasm. O'zbekistonning ayrim davlat banklarining kreditlashdagi ulushi (tegishli yilning 1-yanvar holatiga ko'ra), %

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Investitsiya jalb qilish va risklarni diversifikatsiya qilish funksiyasi.

Bank sektoriga qo'shimcha ravishda, fond bozori xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ta'minlashi, shuningdek, iqtisodiyotni bank sektoriga bo'lgan qaramlikdan xalos etib, unga teng raqobatchi bo'lishi kerak. Biroq, O'zbekiston kapital bozori rivojlanish bosqichida. 2023-yil oxiri yakunlariga ko'ra, joriy davrda 2,71 trillion so'mga teng 411 870 ta bitim ro'yxatga olingan. Ushbu bitimlarda 107 ta emitentning 28,08 milliard qimmatli qog'ozlari ishtirok etdi. 2020-yilga nisbatan 2023-yilda tuzilgan bitimlar soni 1142%ga, bitimlar hajmi 469,2%ga, emitentlar soni 103,9%ga va savdoga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar soni esa 28,3%ga o'sdi.

3-jadval**Birja savdolari bo'yicha asosiy natijalar**

| Ko'rsatkich | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2020-y. va 2023-y. o'rtasidagi o'zgarish, % |
|---|---------|----------|----------|----------|---|
| Tuzilgan bitimlar soni | 36 062 | 71 489 | 80 723 | 411 870 | 1 142 |
| Bitimlar hajmi, mlrd. so'm | 578,15 | 1 260,51 | 4 816,21 | 2 712,75 | 469,2 |
| Savdoda ishtirok etgan emitentlar soni | 103 | 108 | 114 | 107 | 103,9 |
| Savdoga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar, mlrd. dona | 99,08 | 14,18 | 36,15 | 28,08 | 28,3 |
| Savdo vositalari soni | 125 | 132 | 146 | 138 | 110,4 |
| Savdo kunlari soni | 256 | 250 | 247 | 248 | 96,9 |

Manba: muallif tomonidan "Toshkent" RFB ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Fond bozoridagi quyidagi muammolar aniq ko'rinib turibdi:

1. Likvidlikning past darajasi va investorlar uchun mavjud vositalarning cheklanganligi.
2. Fond bozoriga chiqayotgan kompaniyalar va xususiy investorlarning ishtiroki yetarlicha emasligi.

RFV "Toshkent"ning strategik yo'nalishlarini mustahkamlash lozim, xususan, birja savdolarini rivojlantirish, birja infratuzilmasini takomillashtirish, operatsion faoliyatni optimallashtirish, birja vositalarini kengaytirish, shuningdek, tartibga soluvchi va normativ bazani mustahkamlash zarur.

Risklarni boshqarish va ishonchni oshirish funksiyasi

O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, kredit byurolari ma'lumotlar bazasida 8 million fuqaroning kredit tarixiga oid yozuvlar mavjud bo'lib, bu O'zbekiston aholisining 24 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich rivojlangan iqtisodiyotlar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada past, chunki u yerda kredit tarixlari bazasi aholining 80-90 foizini qamrab olishi mumkin. Taqqoslash uchun qo'shni mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlarni 4-jadvalda keltirdik.

4-jadvalda kredit byuro xizmatlari qamrovi va ijobiy kredit tarixiga ega qarz oluvchilar ulushidagi mamlakatlararo tafovutlar ko'rsatilgan. Aholining kredit xizmatlariga nisbatan past darajadagi qamrovi kreditorlar uchun risklarni baholash imkoniyatlarini cheklaydi va to'lov kechikishlari ehtimolini oshiradi. Kreditlashda aholining qamrov bo'yicha yetakchisi Qozog'iston bo'lib (60%), undan ancha ortda Qirg'iziston joylashgan (30%).

Markaziy Osiyoda kreditlash xizmatlarining qamrovini taqqoslash

| Mamlakat | Kredit oluvchilar soni (mln) | Aholi qamrovi (%) | Ijobiy kredit tarixiga ega qarz oluvchilar ulushi (%) |
|--------------|------------------------------|-------------------|---|
| O'zbekiston | 8 | 24% | 60% |
| Qozog'iston | 10 | 60% | 70% |
| Qirg'iziston | 1,5 | 30% | 50% |
| Tojikiston | 2 | 20% | 40% |
| Turkmaniston | 0,5 | 10% | 30% |

Manba: muallif tomonidan www.cbu.uz, www.nationalbank.kz, www.nbkr.kg, www.nbt.tj, www.cbt.tm ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekistonda salbiy kredit tarixiga ega qarz oluvchilar ulushining yuqoriligi (40%) shuni ko'rsatadiki, ko'plab qarz oluvchilar kredit olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat kreditorlar tomonidan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi va mamlakatda umumiy kreditlash darajasini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonda ushbu ko'rsatkichlar yanada yuqori (50%, 60% va 70% mos ravishda).

Yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini yaratish zarurati mavjud, bu barcha qarz oluvchilarni to'liq qamrab olish va kredit risklarini kamaytirish maqsadida ma'lumot almashinuvini samaraliroq qilishga yordam beradi.

To'lov tizimlarida tranzaksiyalarning tezligi va qulaylik funksiyasi


Ushbu funksiya bozordagi ishtirokchilar o'rtasida tez va ishonchli pul o'tkazmalarini, shuningdek, to'lov tizimlarining aholi va biznes uchun qulayligini ta'minlashdan iborat.

2020-yil fevral oyidan boshlab tadbirkorlik subyektlarining to'lov operatsiyalari onlayn rejimida, kunning istalgan vaqtida, Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu tizim yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasida banklararo pul o'tkazmalarini amalga oshirishga, shuningdek, budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga real vaqt rejimida (24/7) hamda dam olish va bayram kunlarida to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu pul o'tkazmalarining to'siqsiz va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun juda muhim va qulay hisoblanadi.

So'nggi 4 yil davomida tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va miqdorining sezilarli o'sishi kuzatildi. Agar 2020-yilda tranzaksiyalar soni 5,3 millionni tashkil etgan va o'tkazilgan mablag'lar hajmi 128 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkichlar mos ravishda 585% va 470,7% ga oshdi va tranzaksiyalar soni 31,4 millionga, o'tkazilgan mablag'lar hajmi esa 603,8 trillion so'mga yetdi.

Moliyaviy institutlarning faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish funksiyasi.

Moliyaviy infratuzilmaning asosiy tartibga soluvchilari bir qator davlat idoralari bo'lib, ular quyidagi sohalarida javobgardir: pul-kredit siyosati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, byudjet siyosati va davlat moliyalari nazorati – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, raqobatni rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar iste'molchilari huquqlarini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va boshqalar.



3-rasm. Markaziy bankning tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonunning 11-moddasida Markaziy bankning vakolatlari ko'rsatilgan bo'lib, u yerda Markaziy bank «banklarga qisqa muddatli kreditlar taqdim etadi va shuningdek, likvidlikni favqulodda qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar beradi, ular uchun shartlar va tartibni o'zi belgilaydi» deb ta'kidlanadi. Bizning fikrimizcha, bu chora bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, qisqa muddatli kreditlar berish iqtisodiyotdagi pul miqdorini oshirishi mumkin, bu esa inflyatsiyaning o'sishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa, iqtisodiyot allaqachon ortiqcha talab yoki tovarlar va xizmatlar taklifidan ortda qolayotgan bo'lsa.

Ikkinchidan, tijorat banklari Markaziy bankdan qo'llab-quvvatlashni qabul qilishga odatlanib qolishi mumkin, ayniqsa, barqarorlik davrlarida. Ushbu bog'liqlik bank sektori samaradorligini pasaytirishi va uning krizislarga moslashish qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin.

Uchinchidan, bu chora bank tizimidagi raqobat muhiti uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bankning qo'llab-quvvatlashi ayniqsa tizim uchun muhim bo'lgan yirik banklar uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu raqobatni kamaytirishi va kichik va o'rta banklarning bozorga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin, chunki ular bunday qo'llab-quvvatlashga teng darajada ega emaslar.

Yangi tahrirda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonundan banklarning «o'z xavf-xatariga ko'ra faoliyat yuritadigan tijorat tashkilotlari» sifatida chiqarib tashlangan bo'lsa ham, biz qisqa muddatli kreditlar sifatida davlat mablag'larini ishlatishni maqsadga muvofiq deb hisoblamaymiz. Bundan tashqari, bu davlatning tijorat banklarining ustav fondlaridagi davlat ulushlarini sotish bo'yicha belgilangan vazifasi bilan ham mos kelmaydi.

Regulyator organlarining barqarorlik va shaffoflikni ta'minlash funksiyasi.

So'nggi yillarda regulyatorlar shaffoflikni oshirish va xalqaro standartlarga rioya qilishga qaratilgan o'zgarishlarni faol joriy etmoqda. Jumladan, 2023-yilda banklar va yirik kompaniyalar uchun hisobot berish va ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha bir qator talablar kiritildi. Shunga qaramay, O'zbekistonning moliya bozori shaffoflik indeksi mintaqaviy o'rtacha darajadan pastroq bo'lib, xalqaro reyting agentliklari moliyaviy xavflarni to'liq baholash uchun ma'lumotlarning yetishmasligini ta'kidlashmoqda.

**O'zbekistondagi regulyatorlik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
(2023-yil holatiga ko'ra)**

| Ko'rsatkich | Qiymat |
|--|------------------|
| Yangi regulyatorlik talablarining soni | 10 |
| Ma'lumotni oshkor qilishga majbur bo'lgan moliya kompaniyalari soni | 200 |
| Moliyaviy bozorlarning o'rtacha shaffoflik darajasi (0-100 balli shkalada) | 55 |
| Moliyaviy shaffoflik indeksi | 45 (past daraja) |
| Yangi hisobot standartlarining soni | 8 |

Manba: muallif tomonidan Jahon banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekiston hali ham 55 ballik shaffoflik indeksiga ega, bu mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan past. Bu xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtirishi mumkin, chunki investorlar odatda yuqori shaffoflikka va ma'lumotning ochiqligiga ega bo'lgan bozorlarga yo'naltirilgan. Moliyaviy ma'lumotlarni markazlashtirilgan va standartlashtirilgan tarzda oshkor etishning yo'qligi ichki hamda tashqi investorlar uchun moliyaviy xavflarni baholashni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, yangi talablar kiritilgan bo'lishiga qaramay, O'zbekiston hali ham xalqaro standartlarga rioya qilishda orqada qolmoqda. Bu xalqaro kapital bozorlariga kirishni cheklaydi va xalqaro tashkilotlar tomonidan ishonchning kamayishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan, biz shaffoflikni kuchaytirish va ma'lumot oshkor qilishning yagona standartlarini ishlab chiqishni zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning moliyaviy infratuzilmasini statistik ma'lumotlar yordamida funksional tahlil qilish, kalit komponentlarning muvaffaqiyatlarini va mavjud muammolarini ko'rsatadi. To'lov tizimlari rivojlanishda davom etmoqda, ammo mamlakatning barcha hududlarini qamrab olish uchun yangilanishni talab qiladi. Bank tizimi umuman barqaror ishlamoqda, ammo raqobatning cheklanganligi va kichik biznesni kreditlashning yetarli emasligi uning yanada o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Fond bozorining kengayishi va likvidligini oshirish zarur bo'lib, bu investorlarga jalb qilishni samarali qilish uchun muhimdir, kredit byuralari esa kredit ma'lumotlariga kirishni oshirish uchun yaxshilanishi zarur. Regulyator choralari kuchaytirish va moliyaviy sektorda shaffoflikni oshirish O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi uchun barqaror infratuzilma yaratishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Bank tizimi bo'yicha yillik hisobot. Manba: <https://cbu.uz>.

OECD. (2021). *Financial Markets and Central Asia: Economic Indicators*. OECD Publishing. *Доступн уз:* <https://oecd.org>.

Respublika fond birjasi «Toshkent». (2023). O'zbekiston fond bozoridagi savdo statistikasi. Manba: <https://uzse.uz>.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (2022). *Markaziy Osiyoda moliyaviy barqarorlik bo'yicha hisobot*. Manba: <https://imf.org>.

Абдулазизова Ў. (2023) Направления развития конкуренции и конкурентной среды на рынках финансовых услуг Узбекистана //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 93-99.

Абдулазизова Ў. (2023) Проблемы формирования конкурентного рынка финансовых услуг Узбекистана //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 12-21.

Абдулазизова Ў. (2023) Роль финансовой инфраструктуры в повышении уровня жизни населения //Nashrlar. – 2023. – С. 177-179.

Абдулазизова У. (2023) Современные трактовки категории «финансовая услуга» //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 9-11.

Абдулазизова Ў. (2023) Сокращение участия государства как вектор развития конкуренции на рынке финансовых услуг //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 103-107.

Алексеев В.Н. (2013). Финансовая инфраструктура и ее элементы: концептуальный подход // Финансовый журнал. 2013. № 1 (15). С. 25-32.

Аналитический отчет Европейского банка реконструкции и развития (ЕБРР). (2022). Развитие цифровых платежей и финансовой доступности в Центральной Азии. Доступ из: <https://ebrd.com>.

Мировой банк. (2023). Развитие финансовой инфраструктуры в странах с переходной экономикой. Вашингтон, США. Доступ из: <https://worldbank.org>.

Сулейманов, И.Р. (2024). Пути усиления интеграции банковского и реального секторов экономики: Монография/И.Р.Сулейманов; –Т.: –Iqtisod-Moliya, 2024. 112 с.

Султанов, М. (2023). РЕСПУБЛИКАМИЗДА МОЛИЯ БОЗОРИ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙУНАЛИШЛАРИ. "Milliy Iqtisodiyotni Isloh Qilish Va Barqaror Rivojlantirish istiqbollari" Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Materiallari to'plami., 283–286. Retrieved from <http://conference.tsue.uz/index.php/article/article/view/453>.